

TA'LIM JARAYONIDA MILLIY CHOLG'U SOZLARINING AHAMIYATI

Maxamatova Marjona Azamatjonovna

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

"Vokal va cholg'u ijrochilig" kafedrası

Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy cholg'u sozlari orqali ta'lim berishning pedagogik ahamiyati, o'quvchilarning musiqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni hamda milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishdagi roli tahlil qilingan. Milliy cholg'u sozlari vositasida ta'lim jarayonini tashkil etish o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijrochilik mahoratini oshirish va milliy musiqa merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada milliy cholg'ularni o'qitish metodikasi, amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi hamda zamonaviy ta'lim jarayonida milliy musiqa an'alaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari milliy cholg'u sozlari orqali ta'lim berish yoshlarning estetik didini yuksaltirish va milliy madaniy merosni asrab-avaylashda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: milliy cholg'u sozlari, musiqa ta'limi, musiqiy tarbiya, ijrochilik mahorati, pedagogik texnologiyalar, milliy qadriyatlar, musiqiy meros, dutor, tanbur, rubob, o'quv jarayoni, estetik tarbiya, musiqa pedagogikasi.

O'zbek xalqining boy madaniy merosida musiqa san'ati alohida o'rin egallaydi. Asrlar davomida shakllangan milliy musiqa an'analari xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, marosimlari va ruhiy olami bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan. Ushbu jarayonda milliy cholg'u sozlari muhim rol o'ynagan. Cholg'u sozlari nafaqat musiqa ijro etish vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim madaniy unsur hisoblanadi.

Ta'lim berish - bu o'qituvchi yoki murabbiy tomonidan o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarga yangi ma'lumotlar tushuntiriladi, ularni fikrlashga, o'rganishga va amalda qo'llashga yo'naltiriladi. Ta'lim berish quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: Bilim berish - yangi ma'lumotlarni tushuntirish, ko'nikma hosil qilish - o'rganilgan bilimni amalda qo'llashni o'rgatish, Malaka shakllantirish - mashq qilish orqali tajribani mustahkamlash va tarbiyaviy ta'sir o'quvchilarda madaniyat, qadriyat va ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirishdan iboratdir.²⁵

²⁵ Jabborov, A. "Musiqqa pedagogikasi asoslari". Toshkent: O'qituvchi. 2004-yil.

Musiqa ta'limida milliy cholg'u sozlaridan foydalanish o'quvchilarning musiqiy bilimni boyitish, ularning estetik didini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa umumta'lim maktablari, musiqa maktablari va oliy ta'lim muassasalarida milliy cholg'u sozlari orqali ta'lim berish yosh avlodni milliy madaniyat bilan tanishtirishning samarali usullaridan biridir. Milliy cholg'u sozlari yordamida ta'lim berish jarayoni o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ritmni his qilish, ohangni to'g'ri anglash hamda ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarni xalq musiqasi an'analari bilan yaqindan tanishtiradi va ularni milliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Milliy cholg'u sozlarining tarixiy shakllanishi: o'zbek xalq cholg'u sozlari juda qadimiy tarixga ega. Tarixiy manbalarga ko'ra, Markaziy Osiyo hududida musiqa madaniyati miloddan avvalgi davrlarda ham mavjud bo'lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan tasvirlar, devoriy rasmlar va haykallarda turli cholg'u sozlarining tasvirlari uchraydi. Bu esa xalq cholg'u sozlarining juda qadimiy tarixga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'rta asrlarda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlar ham musiqa va cholg'u sozlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Musiqa ilmi haqida katta kitob" asarida turli cholg'u sozlari va ularning tovush imkoniyatlari haqida batafsil yozib qoldirgan. Shuningdek, boshqa olimlar ham musiqa nazariyasi va cholg'u sozlari haqida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Asrlar davomida milliy cholg'u sozlari takomillashib bordi.

Ularning tuzilishi, tovush diapazoni va ijro uslublari boyib bordi. Natijada bugungi kunda o'zbek milliy musiqa san'atida turli xil torli, puflama va zarbli cholg'u sozlari keng qo'llanilmoqda. Milliy cholg'u sozlarining turlari ham mavjud. O'zbek xalq cholg'u sozlari odatda uch asosiy guruhga bo'linadi:

1. Torli cholg'u sozlari: torli cholg'u sozlari o'zbek musiqasida eng keng tarqalgan sozlar hisoblanadi. Bu sozlarda tovush torlarning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Torli cholg'u sozlariga quyidagilar kiradi: dutor, tanbur, rubob, g'ijjak, sato, chang kabi musiqa sozlari o'zbek musiqasida asosiy o'rinni egallaydi.²⁶

Dutor ikki torli cholg'u sozi bo'lib, o'zbek xalq musiqasida juda keng tarqalgan. Uning tovushi mayin va yoqimli bo'lib, asosan xalq qo'shiqlari va kuylarini ijro etishda ishlatiladi.

Tanbur esa maqom musiqasining asosiy cholg'ularidan biridir. U uzun bo'yinli torli soz bo'lib, murakkab kuylarni ijro etishga imkon beradi. Rubob ham torli cholg'u bo'lib, o'ziga xos tembrga ega. Bu soz ko'pincha ansambllarda va xalq kuylarini ijro etishda ishlatiladi.

²⁶ Matyoqubov, O. "Maqomot". Toshkent: Musiqa. 2004-yil.

2. Puflama cholg‘u sozlari: puflama cholg‘u sozlarida tovush havo oqimi orqali hosil bo‘ladi. O‘zbek xalq musiqasida puflama cholg‘ular ham muhim o‘rin egallaydi. Ularga quyidagilar kiradi: nay, karnay, surnay kabilar misol bo‘la oladi.

Nay juda qadimiy cholg‘u sozi bo‘lib, u yog‘och yoki qamishdan tayyorlanadi. Nayning tovushi juda yoqimli va lirika bilan boy bo‘lib, ko‘pincha maqom musiqasida ishlatiladi. Karnay va surnay esa ko‘proq tantanali marosimlarda, to‘y va bayramlarda qo‘llaniladi.

3. Zarbli cholg‘u sozlari: zarbli cholg‘u sozlari ritmni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: doira, nog‘ora, qayroq kabilar misol bo‘ladi.

Doira o‘zbek xalq musiqasining eng mashhur zarbli cholg‘ularidan biridir. U ansambl ijrosida ritmni boshqaradi va kuyga jo‘shqinlik bag‘ishlaydi. Milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘lim berishning pedagogik ahamiyati: musiqa ta‘limida milliy cholg‘u sozlaridan foydalanish o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.²⁷

Birinchidan, bu jarayon o‘quvchilarning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantiradi. Cholg‘u chalish jarayonida o‘quvchilar tovush balandligi, ritm va ohangni aniq farqlashni o‘rganadilar.

Ikkinchidan, milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘lim berish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ular turli kuylarni ijro etish orqali musiqiy tafakkurini kengaytiradilar.

Uchinchidan, bu jarayon estetik tarbiyani ham ta‘minlaydi. Milliy kuy va ohanglar orqali o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish qobiliyati shakllanadi.

To‘rtinchidan, milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘lim berish o‘quvchilarda milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytiradi. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan metodlar: milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘lim berishda turli pedagogik metodlardan foydalaniladi.²⁸

Ko‘rsatma usuli: Bu usulda o‘qituvchi cholg‘u chalib ko‘rsatadi va o‘quvchilar uni takrorlaydilar. Bu usul ayniqsa boshlang‘ich bosqichda samarali hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlar: cholg‘u chalishni o‘rganish muntazam mashq qilishni talab qiladi. Shu sababli dars jarayonida amaliy mashg‘ulotlarga alohida e‘tibor beriladi.

Ansambl ijrosi: o‘quvchilar guruh bo‘lib cholg‘u chalish orqali ansambl ijrosini o‘rganadilar. Bu jarayon jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi.

Eshitish orqali o‘rganish: o‘quvchilar turli kuylarni eshitib, ularni cholg‘uda ijro etishga harakat qiladilar. Bu usul musiqiy xotirani rivojlantiradi. Milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘limning tarbiyaviy ahamiyati ham katta jarayonlardan biridir. Milliy cholg‘u sozlari orqali ta‘lim berish o‘quvchilarning nafaqat musiqiy bilimini oshiradi, balki ularning ma‘naviy tarbiyasiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bu jarayon orqali

²⁷ Rajabiy, Y. “O‘zbek xalq musiqasi”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007-yil.

²⁸ Karomatov, F. “O‘zbek musiqa san‘ati tarixi”. Toshkent: Fan. 2018-yil.

o'quvchilar: milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o'rganadilar; xalq san'ati va madaniyatiga qiziqish bildiradilar; ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradilar; jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Milliy cholg'u sozlari orqali ta'lim berish yosh avlodni milliy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirishga undaydi.²⁹

Ushbu maqolada musiqa ta'limi jarayonida milliy merosdan foydalanishning pedagogik, tarbiyaviy va estetik ahamiyati yoritildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy musiqa merosi xalq qo'shiqlari, an'anaviy kuylar va maqom san'ati o'quvchilarning musiqiy bilimlarini boyitishda muhim manba hisoblanadi. Bu meros orqali o'quvchilar nafaqat musiqa madaniyati bilan tanishadilar, balki xalqning tarixiy an'analari, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlarini ham chuqurroq anglay boshlaydilar.

Musiqa darslarida xalq qo'shiqlari va milliy kuylarni o'rganish o'quvchilarning musiqiy eshitish qobiliyatini, ritmni his etish ko'nikmasini hamda ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Shuningdek, milliy merosga oid asarlar orqali o'quvchilarda estetik did, san'atga qiziqish va milliy madaniyatga hurmat tuyg'usi shakllanadi. Bu esa ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Maqola davomida musiqa ta'limida milliy merosdan foydalanishning samarali usullari ham ko'rib chiqildi. Jumladan, xalq qo'shiqlarini tinglash va tahlil qilish, ularni ijro etish, milliy musiqa namunalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi. Musiqa ta'limida milliy merosdan foydalanish o'quvchilarning musiqiy savodxonligini oshirish bilan birga, ularning ma'naviy dunyosini boyitadi va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Ayni paytda muhim bir jihatni yoddan chiqarmasligi lozimki, o'quvchilar bugungi kunda onlab telekanallar, radeo to'lqinlari, qo'l telefonlari, axborot va boshqa oxborot uzatuvchi, tashuvchi vositalar orqali o'z xotiralarida axborotlarni tahlil qilib, fikrlar to'plab boradilar. Bu manbalarning hammasi ham yosh avlodning estetik-badiiy didni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan deb bo'lmaydi. Buni ayniqsa yoshlarning o'zi yengil-yelpi, badiiy va mazmunan sayoz, shovqinli, chet el ohanglariga taqlid sifatida yaratilgan yoki ko'chirilgan musiqalarga o'zlari tushunib yetmagan holda ruju qo'yayotganliklarida va bu holatni tobora kuchayib borayotganligida ko'rishimiz mumkin.

Shu bois, musiqa ta'limi jarayonida milliy musiqa merosidan samarali foydalanish pedagoglarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida ta'lim tarbiya ishlari uchun mas'ul pedagog-murabbiylar oldiga juda murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadiki, ta'limni barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan musiqa o'qituvchilari ham bundan mustasno emas. Shuning uchun hozirgi kunda musiqa o'qituvchilari musiqa darslarida o'quvchilarni birinchi navbatda musiqa san'atiga,

²⁹ Abdurashidov, A. "Milliy cholg'ular ijrochiligi va o'qitish metodikasi". Toshkent: Musiqa.2019-yil.

milliy musiqamizga, xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom musiqasiga qiziqishlarini, unga muhabbat bilan yondoshish, o'rganish, targ'ib qilishga ishtiyoqlarini rivojlantirib borishlari lozim. O'quvchilar nafaqat musiqa asarlarini tinglash, kuylashlari, balki ularni badiiy qimmatini, o'ziga xos xususiyatlari, ijrochilik uslublari, janri, an'anaviyligi, tuzilishi, mohir ijrochilari haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishlari, musiqiy asarni ta'kidlab o'tilgan jihatlari xususida o'z fikrlarini bildira olish salohiyatiga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek ularning musiqiy tafakkuri, dunyoqarashi faqatgina milliy musiqamiz doirasidagi bilim va tushunchalar bilan cheklanib qolmasligi, ayni paytda ular qardosh xalqlar, chet ellarning milliy va kompazitorlik ijodiga tegishli asarlari, Yevropa klassik musiqasi, uning mashhur namoyondalari asarlari bilan tanishib borishlari shartdir.

O'zbek milliy musiqa san'ati xalqning madaniy taraqqiyoti bilan bog'liq holda xalq hayotining san'atdagi badiiy in'ikosi sifatida rivojlanib kelgan. O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimiy madaniy yodgorligi bo'lgan. Avestolda keltirilgan she'riy matnlardagi vazn, turoq va bo'g'in o'lchovlarining qo'shiq matniga mos kelishi, hattoki quron oyatlarini tilovati (tilovat bilan o'qish)da o'ziga xos ohang tovlanishlari bilan o'qilishi, onalar allasida qo'shiqchilikka xos ijrochilik mavjudligi, bularning barchasi milliy qo'shiqchilik san'ati rivojida o'z ta'sirini ko'rsatib kelganligini bildiradi. Sharq xalqlari tarixi, adabiyoti, san'ati haqida o'lmas asarlar yaratgan allomalar, shoirlar asarlarida barcha fanlar qatori musiqa san'atining ko'p ming yillik tarixi, ijro uslublari, an'analari, janriy yo'nalishlari, turli udumlar marosimlar bilan bog'liq jihatlari haqida ham qimmatli ma'lumotlarga keng o'rin berilgan.

Og'zaki an'anadagi xalq musiqasi (folklor) mazmunida xalq ijtimoiy hayotining deyarli barcha qirralari o'z aksini topgan desak also yanglishmaymiz. Ushbu san'at negizida asta sekin sinfiy jamiyat paydo bo'lish bilan musiqa san'atida og'zaki an'anadagi kasbiy (professional) musiqa san'atining paydo bo'lishiga olib keldi. Sinfiy jamiyatdagi tabaqalanish musiqa san'atida ham xalq va yuqori tabaqaga mansub, saroy musiqa ijrochiligi vujudga keldi. Saroy kasbiy musiqasining vujudga kelishi, musiqa san'ati bilan shug'ullanuvchi, o'rganuvchi, o'rgatuvchi (ta'lim an'anasi tizimi) san'atkorlarni ya'ni professional musiqachilarni shakllanishiga keng imkoniyat yaratdi. Sharq uyg'onish davri ayniqsa O'rta Osiyo, shu jumladan o'zbek milliy musiqasi hamda musiqa ilmi rivojlanishida eng muhim rivojlanishida eng muhim davr bo'lib, bu davrda o'zbek milliy musiqasining ayniqsa og'zaki an'anadagi kasbiy (mumtoz musiqasi) janri rivoji yo'lida muhim ishlar amalga oshirildi. Bu rivojlanish nimalarda o'z ifodasini topdi degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin:

1. Musiqa ilmi (nazariy va amaliy ijrochiligi, shuning milliy cholg'ular) da nihoyatda katta ahamiyatga molik maxsus asarlar yozildi;
2. Yangi cholg'ular yaratildi takomillashtirildi;

3. Mumtoz (maqom) musiqaning shakllanishi, rivojlanishida muhim ahamiyatga ega cholg‘u kuylari va qo‘shiqlar vujudga keldi;

4. San‘at sohasida ijod qiluvchi professional kishilar paydo bo‘ldi va ular uchun imkoniyat yaratildi;

5. Sharq uyg‘onish davri birinchi bosqichida o‘zbek mumtoz musiqasining eng noyob va murakkab turi maqom ijodiyoti yo‘nalishida muvaffaqiyatli ishlar amalgam oshirildi.

O‘zbek xalq san‘ati o‘z rivojida juda ko‘plab bosqichlarni, o‘ziga xos rivojlanish va turg‘unlik, yot ta’sirlarga moslashtirish kabi majburiy, siyosiy, mafkuraviy tahdidlarni boshdan kechirdi.

Musiqiy asarlarni yaratishda ijodkorga ichki his-tuyg‘u, xayoliy tasavvurlar bir qatorda tashqi olam, hayot, voqelikni ayrim ko‘rinishlari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, inson kayfiyati, tabiat manzaralari, hayotdagi turli voqea, hodisa, munosabatlar va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarning ohanglarda ifodalab berilishida namoyon bo‘ladi. Bunda ohang retmik tempi, toniga alohida e’tibor qaratiladi, obrazlar uchun xarakter xususiyatlar belgilanadi. Xuddi shuningdek tashqi detallar she’riy matnning mazmunidan kelib chiqadigan fikrlarni ifodalashga ham yordam beradi. Shu tariqa ular o‘rtasida muayyan mutanosiblik o‘rnatiladi va musiqiy obraz yaratilishi ta’minlanadi.

XULOSA

Milliy cholg‘u sozlari orqali ta’lim berish yosh avlodning musiqiy savodxonligini oshirish, estetik didini shakllantirish va milliy madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashning samarali vositalaridan biridir. Ta’lim jarayonida dutor, tanbur, rubob, doira kabi milliy cholg‘ulardan foydalanish o‘quvchilarning ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning milliy o‘zlikni anglash va san‘atga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Milliy cholg‘u sozlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, musiqiy eshitish qobiliyati va amaliy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bunday ta’lim milliy an‘analarni saqlash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish hamda musiqiy merosning uzviy davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy cholg‘u sozlari orqali ta’lim berish nafaqat musiqiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki yoshlarni ma’naviy barkamol, milliy qadriyatlarga sodiq va san‘atni qadrlaydigan shaxslar etib tarbiyalashda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois milliy cholg‘ularni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish va ta’lim amaliyotida keng qo‘llash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jabborov, A. “Musiqqa pedagogikasi asoslari”. Toshkent: O‘qituvchi. 2004-yil.
2. Matyoqubov, O. “Maqomot”. Toshkent: Musiqa. 2004-yil.
3. Rajabiy, Y. “O‘zbek xalq musiqasi”. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi. 2007-yil.
4. Karomatov, F. “O‘zbek musiqqa san’ati tarixi”. Toshkent: Fan. 2018-yil.
5. Abdurashidov, A. “Milliy cholg‘ular ijrochiligi va o‘qitish metodikasi”. Toshkent: Musiqa. 2019-yil.